



SIYOSIY-IJTIMOIIY MATNLARNI INGLIZ TILIDAN O`ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH

Saydullayeva Malika Sayidmurod qizi

Termiz Davlat Universiteti

saydullayevamalika983@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola siyosiy-ijtimoiy matnlarni ingliz tilidan o`zbek tiliga tarjima qilishda uchraydigan muammolar va ularning yechimi haqida. Shuningdek bunday matnlarni qanday qilib tarjima qilish haqidadir. Ushbu maqolada publitsistik uslub haqida ham ma`lumot beriladi.

Kalit so`zlar: ijtimoiy-siyosiy asar, publitsistika, publitsistik uslub, publitsistik atama, leksik transformatsiya.

KIRISH

Hozirgi kunda ro`y berayotgan voqealar bu ijtimoiy-siyosiy hayot demakdir. Biz ijtimoiy-siyosiy matnlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda anchagina murakkabliklarga uchraymiz. Biz siyosiy- ijtimoiy matnlarni ingliz tilidan o`zbek tiliga tarjima qilganimizda leksik transformatsiyalardan foydalanamiz. Bizga ijtimoiy-siyosiy matnlarni tarjima qilishda publitsistik uslub katta foyda beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYASI



Ushbu maqolani yozishda publitsistik uslubning siyosiy-ijtimoiy matnlarni tarjima qilishda foydalanilishi haqida yoritilib beriladi. Shuningdek, publitsistika va publitsistik atamalar haqida ham ma`lumot berilgan.

*Leksik transformatsiya:*ushbu transformatsiya so`zni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi.

Publitsistika – bu publitsist bilan o`quvchi o`rtasidagi ochiq muloqotdir.

MUHOKAMA

Ijtimoiy-siyosiy asar muallifi uslubini tarjimada qayta yaratishda publitsistik uslubga xos bo`lgan xususiyatlarga alohida e`tibor qaratgan holda ish yuritiladi. Bunday adabiyotlar tarjimasi borasida uslubshunos T.Qurbonov dissertatsiyasida muayyan fikrlar bildirilgan. Unda muallif publitsistik uslubning eng muhim xususiyatlarini sanaydi.

Ulardan ayrimlariga to`xtalib o`tamiz:

1. Ijtimoiy-siyosiy munosabatni ifodalash. Bunda operativlik, ijtimoiy hayotda sodir bo`layotgan voqea-hodisalarni qisqa bayon qilib berish lozim bo`ladi. Publitsistika – bu publitsist bilan o`quvchi o`rtasidagi ochiq muloqotdir. Publitsistik uslubning asosiy maqsadi keng ommaga g`oyaviy ta`sir o`tkazish, ularda ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashni shakllantirish va o`z qilayotgan ishlariga ishonch bilan kirishishlariga yordam berishdir.
2. Publitsistik uslubda aniqlik, lo`ndalik, amaliy nutqqa xos sintaksis, qatiyat va hayotiylik ustuvor bo`ladi.
3. Axborotni tezkorlik bilan yetkazish uchun publitsistik uslubda til lahjalaridan , arxaizm va istorizmlardan kamroq foydalaniladi. Unda bugungi kun muammolari ustuvor bo`ladi. Masalan, “kuch” so`zini oladigan bo`lsak, ilmiy uslubda ushbu so`zning jismoniy xususiyatlari ko`rsatilishi mumkin. Ammo publitsistik atama sifatida bu so`zlar – progressiv kuch, yot kuch, qora kuch kabi birikmalar tarkibida qo`llanilishi mumkin, publitsistik



uslubda ijtimoiy-siyosiy atamalar, birikmalar va muayyan qolipdagi soʻzlarda keng foydalaniladi. Masalan, umumxalq, hamkorlik, qurolsizlanish, milliy mustaqillik, sovuq urush, koinotni oʻzlashtirish, siyosi demonstratsiya, ishlab chiqarish ilgʻorlari kabilar.

4. Loʻndalik, masalani aniq qilib qoʻyish, soʻzamollik publitsistik uslubga xos boʻlgan xususiyatlardir.

5. Publitsistik uslubdagi gaplar asosan ritorik xarakterga ega boʻlib, unda sodda gaplardan koʻproq foydalaniladi.

6. Publitsistik uslub rasmiy ish usuliga juda yaqin keladi.

7. Publitsistik uslubda faktlar birinchi shaxs tomonidan gapiriladi. Badiiy uslubda esa bu vazifa koʻproq uchinchi shaxsga havola etildi. Badiiy asardagi avtor nutqi muallifning shaxsiy nutqi boʻlmaydi.

Quyida biz siyosiy-ijtimoiy matnga misol keltiramiz va uni qanday tarjima qilishimiz mumkinligini koʻrib chiqamiz.

Healthcare

A functioning and affordable healthcare system remains elusive in the United States. According to a KFF analysis of government data, around in 10 adults have medical debt. 3 million people owe more than \$10,000.

Black adults, people with disabilities, and those in poor health and most likely to have significant medical debt. Overall, Americans owe hundreds of billions of dollars.

Covid-19 also exposed many cracks in the healthcare system. A 2021 article listed barriers to healthcare access, price and costs, inequity, the marginalization of public health, and quality issues as the longest-standing systematic problems made worse by the pandemic.

The United States` system was simply not equipped to handle the pandemic well.



To deal with future pandemics and the everyday health and wellness of those within its borders, the United States healthcare system needs an overhaul.

Sog`liqni saqlash xizmati

BMT da funksiyaviy va arzon sog`liqni saqlash tizimi mavhumligicha qolmoqda. Hukumat ma`lumotlarini tahlil qilgan KFF ma`lumotlariga ko`ra, har 10 ta o`smirning bittasida tibbiy qarzдорlik bor. 3 million odamda 10,000 aqsh dollaridan ko`p qarzi bor.

Qora tanli o`smirlar, nogironlar va sog`lig`i yomon bo`lganlar katta tibbiy qarzga ega bo`lishlari mumkin. Umuman olganda, amerikaliklar yuzlab milliard dollar qarzдор.

Covid-19 sog`liqni saqlash tizimidagi ko`plab yoriqlarni ham ochib berdi. 2021-yilgi maqolada pandemiya tufayli eng uzoq davom etgan tizimli muammolar sifatida sog`liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, narx va xarajatlar, adolatsizlik, sog`liqni saqlashning chegaralanganligi va sifat muammolari ko`rsatilgan.

Qo`shma Shtatlar tizimi pandemiya bilan yaxshi kurashish uchun jihozlanmagan.

Kelajakdagi pandemiya va uning chegaralaridagilarning kundalik salomatligi va farovonligi bilan kurashish uchun Qo`shma Shtatlar sog`liqni saqlash tizimi qayta tiklanishiga muhtoj.

Biz KFF so`zini tushunmaganligimiz uchun uni izohlab ketish kerak bo`ladi. KFF sog`liqni saqlash siyosati bo`yicha tadqiqotlar, so`rovlar va jurnalistika uchun mustaqil manbadir.

Black adults so`zini qora tanli o`smirlar deb tarjima qilishimiz to`g`ri hisoblanadi.

XULOSA

Siyosiy-ijtimoiy matnlarni tarjima qilishda biz publitsistik uslubdan foydalanamiz. Bunday matnlarni tarjima qilganimizda lo`ndalik katta rol o`ynaydi. Publitsistik uslubda biz bo`yoqdor so`zlardan deyarli foydalanmaymiz. Bo`yoqdor so`zlar badiiy uslubga xos so`zlar hisoblanadi. Shuningdek leksik transformatsiyalardan ham foydalaniladi.



Tushunmagan soʻzlarimiz boʻlsa uni izohlab ketamiz. Tarjimon tarjima qilayotganda oʻz mahoratidan foydalanib tarjima qilishi kerak. Umuman olganda maʼno chiroyli va toʻgʻri chiqishi kerak. Siyosiy-ijtimoiy matnlarni tarjima qilganimizda publitsistik atamalardan foydalanar ekanmiz. Masalan, progressiv kuch, yot kuch, qora kuch va hokazo. Shuningdek, bunday matnlar tarjimasida hayotiylik va aniqlik birinchi oʻrinda turadi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyat bu bugungi kunda roʻy berayotgan voqealar hisoblanadi. Shuning uchun biz bunday matnlarni tarjima qilganimizda yangi soʻzlarni uchratishimiz mumkin va biz ularni tarjima qilishda eʼtibor bilan tarjima qilishimiz kerak.

REFERENCES:

1. Urinova Tursunoy Urin qizi. (2021) Translation problems of set expressions related businessmen speech Международной научно- практической конференции «Молодой учёный: вызовы и перспективы» стр. 120-124
2. Saydullayeva Malika Sayidmurod qizi. (2023) THE STYLISTIC DEVICES IN TRANSLATING ROBERT M. DRAKE'S "BEAUTIFUL AND DAMNED" WORK FROM ENGLISH TO UZBEK pp. 83-85
3. ALIBOYEVA, NIGINA ALISHER QIZI. "APPROACHES TO THE ANALYSIS OF LITERARY TEXT TRANSLATION IN MODERN TRANSLATION STUDIES." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 7 (2022): 140-144
4. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI''ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>